



Yozma Nutq Buzilishlari

Namangan Davlat Pedagogika inustituti Pedagogika fakulteti Maxsus Pedagogika (logopediya) yo'naliishi 3 kurs talabasi **Karimova Nadiya Baxoniddinovna**

Annotansiya: Ushbu maqolada yozma nutq buzilishlari kelib chiqish sabablari, turlari, yozma nutq buzilishlarini oldini olish haqida so'z boradi.

Kalitso'zlar: pauza, urg'u, dizgrafiya, akustik, optik, aleksiya, agrafiya, evolutsion dizgrafiya. Sintaksis, "legasteniya ,kinestik nazorat

Ключевые слова: пауза, ударение, дизграфия, акустик, оптик, алекция, аграфия, эволюцион дизграфия. Синтаксис, «легастения, кинестетический контроль

Keywords: pauza, urg'u, dizgrafiya, akustik, optik, aleksiya, agrafiya, evolutsion dizgrafiya. Syntax, "legastenia, kinesthetic control

Nutq bu – bu fikr bayon qilish vositasi bo'lib, og'zaki va yozma shaklda ifodalaymiz. Og'zaki nutq pauza, urg'u, intonatsiya va tovushlar orqali tinglovchiga borib etsa, yozma nutq harf va so'zlarning ma'lum qonuniyati asosida o'zaro birikib, tinish belgilari, har xil ajratishlari gaplarni gramatik jihatdan aniq va tovushlarni bayon qilish orqali etib boradi. Yozma nutq murakkab jarayon bo'lib, u ko'p vaqt mexnat talab qiladi. Sintaksis jihatdan qaraganda yozma nutq eng to'liq va mukammal nutqdir. Bu nutq ixtiyoriy fikrimizni ifodalab berishning eng yaxshi vositasidir. Bolalarning og'zaki nutqida kamchiliklar uchragani kabi, yozma nutqlarida ham bir qator kamchiliklar uchraydi. Bu holat olimlarimiz tomonidan o'rganilgan bo'lib, olimlar ishining boshlang'ich davri IX asr boshlarida adabiyotlarda o'qish buzilishlari umumiyligi aqli zaiflikning simptomi deb va bu buzilishlar faqat aqli zaif bolalarda kuzatiladi degan fikrlar tarqaldi. (F.Borman va Engellar) XX asr oxiri, 1896 yilda V.Morgan yozish va o'qishdagagi kamchiliklarni aqliy jihatdan sog'om bo'lgan 14 yoshli bolada kuzatgan. V.Morgan bu kamchiliklarni "orfografik jihatdan to'g'ri yozish va xatosiz bog'lanishli o'qish qobiliyatining yo'qligidan kelib chiqadi" deb aniqladi. Bir qancha vaqt o'tgandan keyin 1900 va 1907 yillarda Glazgo shahridan okulist D.Ginshelej aqliy darajasi normada bo'lgan bolalarda uchraydigan o'qish buzilishi holalatlarini o'z ishida bayon etdi. U bu buzilish hamisha ham aqli zaiflik bilan birga kelmasligini tasdiqladi. D.Genshelired birinchi bo'lib o'qishni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni "aleksiya" termini bilan nomladi. P.Ranshburg o'qish buzilishlarini birinchi marta og'ir va engil darajaga bo'ldi. U o'qish buzilishlarini engil darajasini "legasteniya" termini bilan atadi. Keyinchalik "disleksiya" va "disgrafiya" "aleksiya" va "agrafiya" tushunchalarini farqlash holatlari kelib chiqdi. Yozuvning buzilishini belgilashda assosan quyidagi atamalardan foydalilanildi:

Disgrafiya, agrafiya, dizorografiya, evolitsion disgrafiya (bu atama bolalarda o'qish malakasini egallab olish jarayonini buzilganligini belgilash uchun qo'llaniladi) yozuv o'zida nutq faoliyatning murakkab shaklini ko'p darajali jarayonini aks ettiradi. Unda turli hil analizatorlar nutqni eshitish, nutqni xarakatga keltirish, ko'rish, umumiyligi xarakatlantirish analizatorlari ishtiroy etadi. Yozuv jarayonida ular orasida yaqindan bog'lanish va o'zaro aloqadorlik o'rnatiladi.

Yozuv og'zaki nutq jarayoni bilan chambarchas bog'liq bo'ladi hamda uning yuqori darajali rivojalanishi asosida amalga oshadi. Katta yoshlilarning yozuvini avtomatlashgan hisoblanadi va yozuv malakasini o'zlashtirib olayotgan bolaning yozuv xarakteridan farq qiladi. Yozuv avtomatik tarzda amalga oshadi va 2 ta nazorat: fanistik va ko'rish nazoratidan o'tadi. Yozuv jarayoni ko'p darajali qurilishga ega bo'lib, ko'p miqdorli operatsiyalarini o'z ichiga oladi. A.K.Luriya "Yozuv psixofiziologiyasi haqida ocherklar" nomli asarida yozuvning quyidagi operatsiyalarini ko'rsatib o'tadi. Yozuv hissiyotli uyg'onish sabab va vazifalardan boshlanadi. Inson yozma bayon mazmuni rejasini, fikr dasturini, fikrlarining izchilligini hayolan tuzadi.



Harf va so‘zlarning yozilish me’yoriga qarab kinestik nazorat ko‘rish va yozilganlarni o‘qish bilan mustaxkamlanadi. Yozuv jarayoni nutqli va nutqsiz vazifalar: tovushlarni eshitishda ajratish, ularni to‘g‘ri talaffuz etish, til va sintezi, nutqning leksik va gramatik jihatdan shakllanganasi asosida amalga oshadi. Ko‘rsatilgan vazifalardan birontasining shakllanmay qolishi yozuv ko‘nikmalarini egallash jarayonining buzilishiga disgrafiyaning vujudga kelishiga sababchi bo‘lishi mumkin. O‘qish va yozishdagi buzilishlar bir biriga o‘xhash bo‘ladi. Yozuvi buzilgan bolalarda ko‘pgina oliv psixik funksiyalar: qobiliyatning tahlili va sintezi, fazoviy tasavvurlar, nutq tovushlarini ko‘rish eshitish orqali farqlash, fonematik hamda bo‘g‘inli analiz-sintez qilish, gapni so‘zlarga ajratish, nutqning leksik va gramatik tuzilishi, xotira, diqqat-e’tibor, suksesiv va simultan jarayonlarining emotsiyon-irodaviy sohaning shakllanganligi kuzatiladi.

Motor disgrafiya – qo‘lning yozuv paytida qiyin xarakatga kelishi, motor obrazlaridagi aloqalarning so‘zlariga tovush va ko‘rish obrazlari bilan birgalikdagi buzilishi unga xosdir.

Disgrafiyanı bartaraf etishda yozuv mashqlari katta o‘rin tutadi. Artikulator – akuvtk disgrafiyani bartaraf etishda avval tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni to‘g‘rilash lozimdir. Ishning boshlang‘ich davrida tovushlarni aytib takrorlamaslik tavsiya etiladi, chunki bu holatda yozuvda xatoliklarga yo‘l qo‘yilishiga olib kelishi mumkin.

Disgrafiya va fonematik disleksiyanı bartaraf etishda tilning analiz va sintez tomonini rivojlantirish.

Gapda so‘zning soni, ketma-ketligi va o‘rnini aniqlash qobilyatini quyidagi topshiriqlarni bajarish orqali shakllantirish.

1. Sujetli rasmlar asosida gap tuziz va gapdagi so‘zlar sonini aniqlash;
2. Ma’lum miqdorda so‘zlar bo‘yicha gap o‘ylab topish;
3. So‘zlar sonini ko‘paytirib, gapni kengaytirish;
4. Gapda so‘zlar o‘rnini aniqlash;
5. Ma’lum sondagi so‘z ishtirok etgan gaplarni matndar ajratish;
6. Gapda nechta so‘z bo‘lsa, shuni ko‘rsatuvchi sonni ko‘rsatish.

O‘qish va yozuv buzilishlarini oldini olish.

O‘qish va yozuv buzilishlarini oldini olish muktabgacha yoshda o‘tkaziladi. Bu ishlar ayniqsa nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalar, ruhiy rivojlanishida to‘xtalish bo‘lgan, aqli zaif va boshqa anomal bolalar bilan o‘tkazilishi taqqazo qiladi. Bunda olib boriladigan asosiy ishlar fazoviy ko‘rish funksiyasini, diqqat, xotira, analitik, sintetik faoliyat, til analiz-sintezini shakllantirish, nutqning leksik gramatik tomonini rivojlantirish va og‘zaki nutq kamchiliklarini bartaraf etishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda yozma nutq buzilishlari bolaning ham jismoniy ham ruhiy, nuqsonlari kelib chiqishini odini olish, jamiyatdagи bu nuqsonlar haqida tushunchalarni shakllantirish, aholi orasida targ‘ibot ishlarini olib borish kerak.Xozirgi kunda farzandlarimizada uchraydigan yozma nutq nuqsonlari avj urayotgan bir paytda biz logoped o‘qituvchilarning oldimizda juda katta ma’sulyat va burch bor va biz bu vazifani sidqidildan bajaramiz .

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.V.V.Shelenkova,I.B.Korelina.Bolalar o‘smirlar va kattalardagi nutq va ovozning buzilishi .
- 2: E.S.Almazova.Logopedik ish bolalarda ovozni tiklash.2005
- 3: V.V.Shelenkova,I.B.Korelina.Bolalar o‘smirlar va kattalardagi nutq va ovozning buzilishi 2005. M.Y.Ayupova.Logopediya Toshkent 2007
- 4: K.P.Bekker,M.Sovak.Logopediya.1981.

